

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

KASBIY TALIM AGENTLIGI HUZURIDAGI
KASBIY TA'LIMNI RIVOQLANTIRISH INSTITUTI



«TASDIQLAYMAN»

Kasbiy ta'limni rivoqlantirish
instituti direktori

X.Kadirov

« » 2026 yil.

“TA'LIMDA BOSHQARUV”

kafedrasi

PSIXOLOG ETIKASI VA HUQUQIY ASOSLARI

fani bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

Ta'lim turi: Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
Tinglovchilar toifasi: Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

TOSHKENT

Mazkur namunaviy o‘quv dasturi Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi namunaviy o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

M.Dadaxodjayeva

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrasida dotsenti,
p.f.n.,

Taqrizchilar:

G.B.Shoumarov

Profi universiteti rektori, professor

A.Avliyakov

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrasida professori,
p.f.n.,

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida ma’qullangan.
202__yil ____-sonli bayonnoma.

I. TUSHUNTIRISH XATI

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida stress va uni keltirib chiqaruvchi psixofiziologik, emotsional, kognitiv omillarni aniqlashtirish, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan xodimlar orasida kasbiy stressning salbiy asoratlari natijasida kuzatilayotgan kasbiy deformatsiya namoyon bo'lishini kamaytirish, xodimning psixosotsial salomatligini yomonlashuvi, raqobatbardoshlik sifatlarining susayishi, xodimlarning kasbiy stressga barqarorligini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga psixoprofilaktik, psixokorreksion ta'sir usullarining samaradorligini oshirish, pedagog shaxsida kasbiy stress vujudga kelishining psixologik xususiyatlarini aniqlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Umuman inson jamiyatda o'zi aloxida faoliyat ko'rsatishi juda qiyin, u xamisha xayotning barcha bosqichlarida o'ziga mos guruxlar tarkibiga kiradi va qaysi soxada ishlashdan ka'tiy nazar ular bilan birgalikda faoliyat ko'rsatadi. Bu daslab oila, bogcha, maxalla, maktab, O'quv yurtlari, ishxonasi va xakozalardir. Ana shu guruhlarning ta'sirlaridan kelib chiqqan xolda uning sifatleri va xususiyatlari shakllanadi. Guruh-ma'lum ijtimoiy maqsadleri asosida tuplangan, mulokat e'xtiyojleri qondiriladigan insonlar uyushmasidir.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23 iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda mazkur o'quv fanni o'qitilishi tinglovchilarning faoliyatlarini samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishchi o'quv dasturida ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi amaliy psixologlarning ish tajribalarida shaxs rivojlanishiga oid mashg'ulotlar va ijtimoiy psixologik treninglardan foydalangan holda shaxs rivojlanishi va ijtimoiy muhitga moslashishida salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni bartaraf etishga ko'maklashishda psixologik usullardan samarali foydalanish hamda ta'lim jarayonlarida qo'llay olish bilan belgilanadi.

Ushbu o'quv fani o'quv yuklamasi 60 soat bo'lib, shundan:

Jami auditoriya o'quv yuklamasi	- 30 soat
Jumladan: Nazariy mashg'ulotlar	- 12 soat
Amaliy mashg'ulotlar	- 18 soat

II. FANNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Fan nomi: Psixolog etikasi va huquqiy asoslar.

2.2. Fan maqsad: Psixolog etikasi va huquqiy asoslar, Psixolog kasbiy faoliyatining axloqiy me'yorlari va huquqiy talablarini o'rganish. Kasbiy etika tamoyillari, maxfiylik, mas'uliyat, professional chegaralar va mijoz huquqlarini himoya qilish masalalari. Psixolog faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, kasbiy javobgarlik, etik dilemmalar va ularni hal etish usullari. Psixologning professional obro'si va etik madaniyatini shakllantirish.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar fanni o'zlashtirish jarayonida qo'yidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

Bilim	Ko'nikma va malaka
Psixolog kasbiy faoliyatining axloqiy me'yorlari va huquqiy talablarini o'rganish. Kasbiy etika tamoyillari, maxfiylik, mas'uliyat, professional chegaralar va mijoz huquqlarini himoya qilish masalalari. Psixolog faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, kasbiy javobgarlik, etik dilemmalar va ularni hal etish usullari. Psixologning professional obro'si va etik madaniyati	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Psixolog kasbiy faoliyatining axloqiy me'yorlari va huquqiy talablari; ✓ Kasbiy etika tamoyillari, maxfiylik, mas'uliyat, professional chegaralar va mijoz huquqlarini himoya qilish; ✓ Psixolog faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, kasbiy javobgarlik, etik dilemmalar va ularni hal etish usullari; ✓ Psixologning professional obro'si va etik madaniyati

2.4. Fan birligi bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Mavzular	Auditoriyadagi o'quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Psixolog kasbiy faoliyatining axloqiy me'yorlari va huquqiy talablarini o'rganish.	4	2	2
2.	Kasbiy etika tamoyillari, maxfiylik, mas'uliyat, professional chegaralar va mijoz huquqlarini himoya qilish masalalari	6	4	2
3	Kasbiy psixologik faoliyatda etika va maxfiylikni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar	4		4
4.	Psixolog faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, kasbiy javobgarlik, etik dilemmalar va ularni hal etish usullari.	6	4	2
5.	Psixologning professional obro'si va etik madaniyatini shakllantirish	6	2	4
6	Psixologning professional imiji, etik madaniyati va "Mijoz huquqlari deklaratsiyasi"ni loyihalash	4		4
Jami:		30	12	18

III. FAN BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu: Psixolog kasbiy faoliyatining axloqiy me'yorlari va huquqiy talablarini o'rganish. Mijoz shaxsiy ma'lumotlari sir saqlanishining mutloq daxlsizligi, psixologik eksperimentlarda ishtirokchilarning ixtiyoriy rozilik berish tamoyili, kasbiy kompetensiya chegaralaridan chiqmaslikning huquqiy mas'uliyati, mijoz va psixolog o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, ekspertiza jarayonida psixodiagnostik xulosalarning ob'ektivlik va xolislik mezonini, destruktiv xulq-atvor namoyon bo'lganda uchinchi tomonni ogohlantirish majburiyati, psixoterapevtik amaliyotda professional chegara buzilishining oldini olish mexanizmlari, mijozning shaxsiy va madaniy qadriyatlariga nisbatan tolerantlik munosabati, psixologik maslahat jarayonida asossiz va'dalar berishning axloqiy taqiqlanishi, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda qonuniy vakillar roziligini olish majburiyati.

2-mavzu: Kasbiy etika tamoyillari, maxfiylik, mas'uliyat, professional chegaralar va mijoz huquqlarini himoya qilish masalalari. Maxfiy ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishning huquqiy reglamenti, psixologik aralashuv jarayonida mijozga zarar keltirmaslikning ustuvorlik tamoyili, professional munosabatlarda terapevtik va shaxsiy chegaralarni qat'iy tabaqalash, mijozning ongli ravishda rozilik berish huquqining psixologik va huquqiy kafolatlari, kasbiy etika normalarining milliy va xalqaro qonunchilik tizimidagi o'rni, mijoz ma'lumotlarini raqamli makonda saqlashning kiberxavfsizlik va axloqiy me'yorlari, psixologik yordam ko'rsatish jarayonida ijtimoiy va iqtisodiy kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi, kasbiy mas'uliyatni his etishda superviziya va interviziya ko'magidan foydalanish, mijozning ruhiy salomatligi va shaxsiy avtonomiyasini himoya qilishning axloqiy ustuvorligi, professional faoliyatda ko'p tomonlama munosabatlar yuzaga kelishining salbiy oqibatlari, psixologik xizmat haqini belgilashda shaffoflik va axloqiy mezonlarga rioya qilish

4-mavzu: Psixolog faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, kasbiy javobgarlik, etik dilemmalar va ularni hal etish usullari. Psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini tartibga soluvchi milliy normativ-huquqiy baza, kasbiy majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslikning qonuniy va intizomiy javobgarligi, etik dilemmalarni tizimli tahlil qilish va maqbul qarorlar qabul qilish modellari, mijozning huquqiy layoqatsizligi holatida psixologik aralashuv xususiyatlarining huquqiy tartibi, kasbiy faoliyat davomida yuzaga keladigan qadriyatlararo ixtiloflarning etik tahlili, sud-psixologik ekspertizasi xulosalarining huquqiy va uslubiy asoslanganlik darajasi, murakkab etik vaziyatlarda hamkasblar va supervizorlar bilan maslahatlashish mexanizmi, mijoz siri va jamoat xavfsizligi o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish usullari, psixologning kasbiy deontologiya prinsiplariga rioya qilishining ichki nazorat tizimi, normativ-huquqiy hujjatlardagi bo'shliqlar sharoitida etik kodeksga tayanish tamoyili, eksperimental tadqiqotlarda ishtirokchilarning psixofizik xavfsizligini ta'minlashning huquqiy kafolatlari, etik dilemmalarni hal etishda mijoz manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash algoritmlari.

5-mavzu: Psixologning professional obro'si va etik madaniyatini shakllantirish. Kasbiy obro'-e'tibor deontologiyasi, etik madaniyatni shakllantirish mezonlari, professional imidj va kompetensiya, psixologning kasbiy refleksiya, etik ongning shakllanish dinamikasi, akademik va kasbiy halollik, kollektivalararo professional birdamlik, shaxsiy va kasbiy identifikatsiya, psixologning korporativ madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat va nufuz.

3.2. Amaliy mashg'ulot mazmuni

1-mavzu: Psixolog kasbiy faoliyatining axloqiy me'yorlari va huquqiy talablarini o'rganish

Topshiriqning qisqacha mazmuni: Talaba xorijiy ilg'or tajribalar (AQShning APA yoki Yevropaning EuroPsy modellari) andozalarini milliy huquqiy va sotsiomadaniy voqeorlikka moslashtirish (adaptatsiya qilish) muammolarini ilmiy tahlil qiladi.

Vazifa tarifi: Quyidagi qisqa keysni xorijiy va milliy normativ talablar kesishmasida tahlil qilib, 3 ta savolga lo'nda yechim yozing:

Vaziyat: Oliy ma'lumotli yosh psixolog xalqaro onlayn platformada AQSh va O'zbekiston fuqarolariga birdek xizmat ko'rsatmoqda. Seans davomida AQSh fuqarosi ham, o'zbekistonlik mijoz ham soliq va moliya sohasida yirik qonunbuzarlik (firgarlik) sodir etganini tan oldi. APA kodeksiga ko'ra, moliyaviy jinoyat maxfiylikni buzishga to'g'ridan-to'g'ri asos bo'lolmaydi. Biroq, milliy qonunchilikda jinoyat haqida xabar bermaslik javobgarligi mavjud.

1. Huquqiy kolliziya: Psixolog qaysi davlat subyekti uchun maxfiylikni saqlashi, qaysi biri uchun buzishi shart? (Yuridik omil ta'siri).

2. Litsenziya standarti: Agar ushbu psixolog Ph.D. darajasiga ega bo'lmay, shunchaki bakalavr diplomi bilan ishlayotgan bo'lsa, xorijiy (APA) standart bo'yicha uning maqomi qanday baholanadi?

3. Integrativ yechim: Bunday transchegaraviy (global) xizmatlarda etika va qonun muvozanatini saqlashning eng optimal yo'li nima?

2-mavzu: "BOUNDARY DRIFT" (chegaralarning sekin-asta yemirilishi) dinamikasini eksperimental diagnostika qilish

Topshiriqning qisqacha mazmuni: Psixologik amaliyotda professional masofaning qo'pol buzilishi (Boundary Violation) to'satdan yuz bermaydi, balki u mayda, sezilarsiz chalg'ishlar (Boundary Crossing yoki Boundary Drift) zanjiridan boshlanadi. Ishtirokchi endogen (ichki) va ekzogen (tashqi) omillarning ushbu jarayonga ta'sirini matematik-mantiqiy zanjir ko'rinishida modellashtirishi kerak.

Vazifa tarifi: Quyida berilgan regressiv (orqaga ketuvchi) kasbiy zanjirni tahlil qiling va har bir bosqichda etika inqirozini keltirib chiqargan bitta endogen (ichki shaxsiy) va bitta ekzogen (tashqi muhitli) omilni aniqlab, qisqa ta'riflang:

Bosqich 1: Ish vaqtidan tashqari onlayn xabarlarga javob berish

Bosqich 2: Seans paytida mijoz bilan shaxsiy hayotiy muammolarni bo'lishish (Kontrtransfer)

Bosqich 3: Seans uchun to'lov o'rniga mijozdan moddiy xizmat yoki sovg'a qabul qilish

Bosqich 4: Terapevtik munosabatning shaxsiy do'stlik yoki ekspluatatsiyaga aylanishi

Kutiladigan qisqa natija: Ishtirokchi har bir o'tish bosqichi uchun ichki (masalan, narsistik ehtiyoj, kasbiy yonish) va tashqi (masalan, ma'muriy

tartibsizlik, raqamli makon nazoratsizligi) determinantlar simbiozini ko'rsatuvchi 4 banddan iborat analitik xulosa tayyorlaydi.

3-mavzu: Kasbiy psixologik faoliyatda etika va maxfiylikni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar

Eksperimental keys-vaziyat: Litsey psixologining qabuliga 17 yoshli o'quvchi keldi. U o'ta og'ir affektiv (emotsional) inqiroz holatida bo'lib, o'zining bir guruh tengdoshlari bilan birgalikda taqiqlangan psixoaktiv moddalar (sintetik narkotiklar) iste'mol qilayotganini va tarqatish bilan shug'ullanayotganini ma'lum qildi. U buni depressiyadan qutulish uchun qilayotganini, agar bu haqda kimdir bilsa, guruh a'zolari undan o'ch olishini va hayoti xavf ostida qolishini aytdi. Ayni shu kunning o'zida Litsey direktori (psixologga maosh to'lovchi va ma'muriy rahbar) huquq-tartibot organlari bilan hamkorlikda maktabda narkotik profilaktikasi bo'yicha "shubhali o'quvchilar ro'yxati"ni topshirishni psixologdan qat'iy talab qildi.

Ishtirokchilar uchun amaliy vazifa (Savollar paneli):

Ushbu keys misolida etika va maxfiylikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni differensial tahlil qilib, quyidagi 4 ta tizimli savolga ilmiy-metodologik va huquqiy yechim yozing:

1. Ekzogen determinatsiya tahlili: Ushbu vaziyatda litsey direktorining ma'muriy bosimi va o'quvchining jinoiy guruh tomonidan hayotiga bo'lgan tahdidi psixologning "mustaqil etika tamoyillariga rioya qilish" qobiliyatiga qanday tashqi to'siqlarni yuzaga keltirmoqda?

2. Endogen xavf tahlili (Kontrtransfer): Agar psixologda o'z hayoti va ish joyidan ayrilish qo'rquvi (ichki shaxsiy omil) ustun kelsa, bu uning o'quvchi bilan bo'lgan "Informed Consent" (Axborotlashtirilgan rozilik) bitimiga va maxfiylik majburiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Psixolog qanday xatoga yo'l qo'yishi mumkin?

3. Huquqiy kolliziyani hal etish: O'zbekiston Respublikasining Jinoiy kodeksidagi "jinoiyat haqida xabar bermaslik" javobgarligi va psixologning "maxfiylik" kodeksi o'rtasidagi ziddiyat ushbu keysda qanday muvozanatlanadi? Psixolog ma'lumotni qaysi organlarga va qanday shaklda taqdim etishi kerak?

4. Pedagogik preventiv strategiya loyihasi: Ushbu omillar bosimi ostida o'quvchining daxlsizlik huquqini sotsial-psixologik dezadaptatsiyaga uchratmasdan, uning hayotiy xavfsizligini ta'minlovchi 3 bosqichli chora-tadbirlar algoritmini loyihalashtiring.

4-mavzu: Psixolog faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, kasbiy javobgarlik, etik dilemmalar va ularni hal etish usullari

Ishtirokchilar 3-4 ta guruhga bo'linadi. Har bir guruh quyida keltirilgan murakkab professional keyslardan (vaziyatlardan) birini qabul qilib oladi va uni "Etik qaror qabul qilish protokoli" (shablone pastda keltirilgan) asosida yozma ravishda tahlil qiladi. Guruhlar o'z qarorlarini shunchaki shaxsiy fikr bilan emas,

balki amaldagi qonun hujjatlari moddalari va etika kodeksi prinsiplari bilan asoslab berishlari shart.

1-Keys: "Yashirin jinoyat va maxfiylik" (Huquq-tartibot va oila psixologiyasi)

Vaziyat: Xususiy amaliyot olib borayotgan psixolog qabuliga 32 yoshli ayol oilaviy nizo va depressiv holat bo'yicha murojaat qildi. Seans davomida ayol yig'lab, uning turmush o'rtog'i (yirik davlat tashkilotida mas'ul shaxs) bir necha yildan beri o'zining voyaga yetmagan o'gay qiziga (ayolning birinchi nikohidan bo'lgan 12 yoshli qiziga) nisbatan yashirincha jinsiy zo'ravonlik (pedofiliya) qilib kelayotganini, erining tahdidlaridan qo'rqqani uchun hech qayerga murojaat qila olmayotganini aytib berdi. Ayol psixologdan buni sir saqlashni, agar bu gap ko'chaga chiqsa erining obro'si to'kilishi va oilasi barbod bo'lishini aytib, qat'iy va'da berishini talab qilmoqda. Psixologning dilemmasi: Maxfiylik tamoyilini saqlash va voyaga yetmagan bolaning hayoti/sog'lig'ini himoya qilish (jinoiy til birlashtirishga sherik bo'lmaslik) o'rtasidagi to'qnashuv.

2-Keys: "Ma'muriyat bosimi va manfaatlar to'qnashuvi" (Ta'lim psixologiyasi)

Vaziyat: Maktab direktori maktab psixologini o'z xonasiga chaqirib, 9-"B" sinf o'quvchisi Sanjarovning barcha psixodiagnostik xulosalari va shaxsiy suhbatlar kundaligini zudlik bilan unga topshirishni buyurdi. Direktorning aytishicha, ushbu o'quvchi maktab reytingiga va intizomiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, ota-onasi esa maktab ma'muriyati bilan doimiy janjallashib keladi. Direktor ushbu psixologik xulosalardan foydalanib, bolani "ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor" degan vaj bilan maktabdan chetlashtirish (boshqa maxsus maktabga majburiy o'tkazish) uchun asos sifatida foydalanmoqchi. Agar psixolog hujjatlarni bermasa, direktor uni "rahbariyat buyrug'iga bo'ysunmaslik" moddasi bilan ishdan bo'shatishini aytdi. Psixologning dilemmasi: Ish joyini saqlab qolish (rahbariyatga bo'ysunish) va o'quvchining manfaatlarini himoya qilish (ma'lumotlarni sizdirmaslik) o'rtasidagi to'qnashuv.

5-mavzu: Kasbiy amaliyotda etik dilemmalarni tahlil qilish va ularni normativ-huquqiy hujjatlar asosida hal etish (Case-study)

Tahlil jarayonida talabalar quyidagi normativ-huquqiy va etik hujjatlar to'plamiga tayanishlari shart:

1. O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi va professional ta'lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi nizomlar.

2. Psixologning kasbiy etika Kodeksi (Maxfiylik, xolislik, kompetentlik va mas'uliyat tamoyillari).

3. Xalqaro standartlar (APA – Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi etika kodeksi bandlari).

• 1-bosqich: Muammoni qo'yilishi (15 daqiqa). Psixologik amaliyotda "Etik dilemma" tushunchasi (qonun ustuvorligi va kasbiy etika kodeksi to'qnash kelganda, masalan, huquqiy xabar berish majburiyati va mijoz bilan maxfiylik kelishuvi) hamda uni hal etish algoritmi qisqacha tushuntiriladi.

• 2-bosqich: Guruhlarga bo‘linish va keyslar ustida ishlash (35 daqiqa). Ishtirokchilar 3-4 ta kichik guruhga bo‘linadi va har bir guruhga murakkab modellashtirilgan keyslar tarqatiladi. Guruhlar vaziyatni quyidagi bosqichlar bo‘yicha tahlil qiladilar:

- Vaziyatdagi etik to‘qnashuvni (dilemmani) aniqlash.
- Mijozning huquqlari va psixologning majburiyatlarini belgilash.
- Qaysi huquqiy hujjat yoki etika kodeksi bandlariga tayanish kerakligini asoslash.
- Muammoning yechim variantlarini va ularning ehtimoliy oqibatlarini tahlil qilish.

III. Tahlil uchun amaliy keyslar (Namunalar):

1-Guruh uchun keys (Ta‘lim muassasasi psixologi uchun): Maktab psixologining qabuliga 15 yoshli o‘quvchi keldi. U chuqur emotsional inqirozda bo‘lib, o‘z joniga qasd qilish (suitsidal) fikrlari borligini aytdi. Biroq, u psixologdan bu haqda ota-onasiga va maktab rahbariyatiga mutlaqo aytmaslikni, aks holda uydagilar uni qattiq jazolashini va vaziyat yanada yomonlashishini yig‘lab so‘radi. Maxfiylik kelishuvi va o‘quvchining hayotiy xavfsizligi o‘rtasida dilemma yuzaga keldi. *Vazifa:* Psixolog qanday yo‘l tutishi kerak? Huquqiy va etik me‘yorlarni muvozanatlang.

2-Guruh uchun keys (Professional chegaralar dilemmasi): Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi psixolog qabuliga yirik tadbirkor keldi. Seanslar davomida mijoz psixologga yuqori haq to‘lash bilan birga, unga qimmatbaho sovg‘alar bera boshladi va o‘zining yangi biznes loyihalarida psixologning professional maslahatchi (sherik) bo‘lishini, evaziga foydadan ulush berishini taklif qildi. *Vazifa:* Bu yerda qaysi professional chegaralar buzilmoqda? Psixologning obro‘si va etik madaniyatiga bu qanday ta‘sir qiladi?

• 3-bosqich: Taqdimot va jamoaviy diskussiya (30 daqiqa). Har bir guruh o‘z yechimini guruh nomidan himoya qiladi va qarorlarini qonun hujjatlari bilan asoslaydi. Boshqa guruhlar savollar beradi.

6-Amaliy mashg‘ulot: Psixologning professional imiji, etik madaniyati va “Mijoz huquqlari deklaratsiyasi”ni loyihalash

- Ajratilgan vaqt: 4 akademik soat.
- Mashg‘ulotning maqsadi: Psixologning ijtimoiy tarmoqlardagi va jamiyatdagi professional obro‘-e‘tiborini, etik madaniyatini shakllantirish mezonlarini ishlab chiqish hamda amaliyotda mijoz huquqlarini kafolatlovchi "Axborotlashtirilgan rozilik bitimi" (Informed Consent) loyihasini yaratish.

• 1-bosqich: "Raqqamli etika va professional obro‘" munozarasi (20 daqiqa). Zamonaviy psixologning ijtimoiy tarmoqlardagi (Instagram, Telegram va b.)

faoliyati, shaxsiy hayotini ko'rsatishi, mijozlar bilan muloqot madaniyati va onlayn maslahat berishning etik chegaralari muhokama qilinadi.

• 2-bosqich: Amaliy topshiriq – "Axborotlashtirilgan rozilik" hujjatini ishlab chiqish (40 daqiqa). Ishtirokchilar juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlaydi. Ularga o'zlarining bo'lajak (yoki amaldagi) psixologik markazlari yoki shaxsiy amaliyotlari uchun mijoz bilan imzolanadigan "Axborotlashtirilgan rozilik bitimi" modelini yaratish topshirig'i beriladi.

Hujjat loyihasi quyidagi majburiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi ilmiy-metodologik jihatdan talab etiladi:

1. Xizmatlarning chegarasi: Psixolog nima qila oladi va nimalarga uning vakolati (kompetensiyasi) yetmaydi (masalan, dori-darmon yozib bera olmasligi).

2. Maxfiylik shartlari va uning chegaralari: Qaysi holatlarda (masalan, jinoyat haqida xabar topilganda yoki shaxs hayotiga xavf bo'lganda) maxfiylik qonunan buzilishi aniq ko'rsatilishi shart.

3. Moliyaviy shartlar: Seanslar narxi, kechikishlar va uchrashuvni bekor qilish qoidalari.

4. Mijozning huquqlari: Terapiyani xohlagan vaqtda to'xtatish, boshqa mutaxassisga yo'naltirishni talab qilish huquqlari.

Mashg'ulot natijasini baholash mezonlari:

Har bir guruh o'zi tayyorlagan shartnoma matnini taqdim etadi. Baholashda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- Hujjat matnida psixologik va huquqiy atamalarning to'g'ri qo'llanilganligi.
- Mijoz huquqlari va psixolog mas'uliyatining o'zaro mutanosibliigi.
- Manipulyatsiyadan xoli ekanligi va etik madaniyat me'yorlariga mosligi.

Modulga ajratilgan kreditdan 1 (bir) kredit ta'lim yo'nalishlaridagi soha tashkilotlarida amaliyot tashkil etilishi mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy bazasida psixologik maxfiylik tushunchasi fuqarolarning qaysi daxlsizlik huquqlari doirasida yuridik kuchga ega bo'ladi?

2. Psixologik faoliyatda "Malpraktika" (kasbiy loqaydlik yoki noto'g'ri intervensiya) tushunchasining mazmuni nima va u mutaxassis uchun qanday fuqarolik-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi?

3. Sud-psixologik ekspertizasi jarayonida olingan ma'lumotlarning maxfiylik darajasi va ulardan foydalanish tartibi oddiy psixologik konsultatsiyadagi maxfiylikdan yuridik jihatdan nimasi bilan farq qiladi?

4. Ta'lim tizimi psixologi maktab ma'muriyati tomonidan o'quvchilarning diagnostika natijalarini ochiq reyting shaklida taqdim etish talabi (ekzogen bosim) qarshisida qolganda, o'z avtonomiyasini qaysi normativ hujjatlar bilan himoya qiladi?

5. "Mijoz huquqlari deklaratsiyasi"ning xalqaro amaliyotdagi o'rnini qanday va ushbu hujjat mijozda psixologik xizmatga nisbatan ishonchni shakllantirishda qanday universal funksiyani bajaradi?

6. Psixologik amaliyotda "Axborotlashtirilgan rozilik" (Informed Consent) hujjati qabul boshlanishidan avval qanday sotsial-psixologik va terapevtik maqsadlarda tuziladi?

7. Voyaga yetmagan shaxslar (o'smirlar) bilan ishlashda "Axborotlashtirilgan rozilik" olishning huquqiy va etik o'ziga xosligi nimada hamda ota-ona roziligi qaysi holatda majburiy hisoblanadi?

8. R. Kitchenening etik qaror qabul qilish modeliga ko'ra, intuitiv (hissiy) darajadagi axloqiy munosabat nega tanqidiy-refleksiv darajadagi tahlilni talab etadi?

9. Etik dilemma (Ethical dilemma) tushunchasining psixologik tabiati nima va u "yaxshi va yomon" o'rtasidagi oddiy tanlovdan kontseptual jihatdan nimasi bilan farq qiladi?

10. Psixolog mijozning suitsidal rejalari yoki uchinchi shaxslarga nisbatan hayotiy xavf tug'diruvchi niyatlarini aniqlaganda, maxfiylik kelishuvini qonuniy ravishda buzish algoritmi qanday kechadi?

11. Professional amaliyotda Boundary Crossing (Vaqtinchalik chegaradan chiqish) va Boundary Violation (Chegarani qo'pol va destruktiv buzish) tushunchalarining farqli va differensial jihatlarini tushuntiring.

12. Nima sababdan psixologning o'z talabalari, yaqin do'stlari yoki qarindoshlari bilan psixoterapevtik munosabatlarga kirishishi (dual/ikki tomonlama munosabatlar) etika kodeksida qat'iyan man etiladi?

13. Psixologik seans davomida yuzaga keladigan Transfer (Mijozning hislarni ko'chirishi) va Kontrtransfer (Psixologning aks-ko'chirish reaksiyasi) dinamikasi professional chegaralarning barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

14. "Boundary Drift" (Professional masofaning sekin-asta, sezilarsiz yemirilishi) jarayoni qanday bosqichlarda namoyon bo'ladi va uning oldini olishda superviziyaning roli qanday?

15. Mijoz tomonidan taqdim etiladigan qimmatbaho sovg'alar, moddiy xizmatlar yoki hamkorlik takliflarini qabul qilish nega terapevtik munosabatlarning ekspluatatsiyaga aylanishi xavfini tug'diradi?

16. Kasbiy "yonish" (Burnout) sindromining depersonalizatsiya (emotsional sovuqlik) bosqichi psixologning etik normalarga rioya qilish qobiliyatiga qanday ichki (endogen) ta'sir ko'rsatadi?

17. Psixologning shaxsiy hal qilinmagan nevroitik travmalari seans davomida mijozning muammolarini obyektiv va xolis (neutral) baholashga qanday to'sqinlik qiladi?

18. Jamiyatdagi kollektivist mentalitet, urf-odatlar va sotsial stereotiplar mijozlarning shaxsiy daxlsizlik va maxfiylik tushunchalarini qabul qilishiga qanday ekzogen (tashqi) omil sifatida ta'sir qiladi?

19. Raqamli makonda (onlayn konsultatsiyalar, messenjerlar) psixologik faoliyat yuritishda mijoz ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi kiber-texnologik omillar nimalardan iborat?

20. Tashkilot ichidagi avtoritar boshqaruv uslubi va ma'muriy bosim sharoitida psixolog o'zining professional avtonomiyasini qanday saqlab qolishi mumkin?

O'QITISH VOSITALARI

1. Doska.
2. Flipchart qog'ozi.
3. Qog'oz A4 formatli.
4. Tarqatma materiallar.
5. Multimediya to'plami (kompyuter, videoproektor, ekran).
6. Interaktiv doskalar – vizual va amaliy ta'limni tashkil etish imkonini beradi.
7. Elektron darsliklar va raqamli o'quv resurslari – mustaqil va moslashtirilgan o'qishni ta'minlaydi.
8. Mobil qurilmalar va ta'lim ilovalari – har qanday joyda o'qish imkonini yaratadi.
9. Onlayn test va baholash tizimlari – bilimni tezkor va obyektiv nazorat qilishga xizmat qiladi.

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-1475-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi «Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1761-son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston

– 2030” strategiyasi to’g’risida” PF-158-son farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohatlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-200-son qaror.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-158-son Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-190-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-316-son Qarori

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

14. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi 106-son qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrda “Professional ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 648-son qarori.

Asosiy adabiyotlar:

1. E.G’.G’oziyev Shaxs psixologiyasi O’ZMU: - Toshkent 2001 y. 134 b.
2. Тесты деловые игры, тренинги (в управлении персоналом); В.П.Пугачев. Москва; Издательство «Аспект Пресс» 2002.
3. E.G’.G’oziyev «Psixologiya» Toshkent, 1994 y.
4. Н.В.Гришина Психология конфликта. Спб. 2003
5. Р.И.Мокшанов. Психология переговоров. М., 2002
6. E.N.Sattorov, X.Alimov Boshqaruv muloqoti. Toshkent, Akademiya, 2003
7. Sh.T.Halilova Inson – buyuk mo’jiza. O’MKXTTKMO va UQTI T: 2014.
8. Т.П.Галкина Социология управления: От группы к команде. М., 2003.
9. Z.Ibodullayev “Tibbiyot psixologiyasi” 2021.
10. Р.Л. Кричевский Если Вы руководитель. М., 1998.
11. В.Н.Машков Психология управления Спб., 2000.

Internet saytlari:

12. www.library.com
13. www.expert.psychology.ru
14. www.referat.ru
15. www.ziyonet.uz
16. www.psycho.all.ru

17. www.psy.piter.com
18. www.psychology.net.ru